



IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KORXONALARDA DAVR XARAJATLARI HISOBINI YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE ACCOUNTING OF PERIOD COSTS IN ENTERPRISES UNDER CONDITIONS OF ECONOMIC MODERNIZATION

¹Madaminov In'omjon
Ozodovich,
²Rahmonova Mohinur
Sherzod qizi

¹Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.,
ORCID: 0000-0002-6832-9131, G-mail: inomjon.ozodovich@gmail.com,
²Urganch davlat universitetining IV-bosqich talabasi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur ilmiy maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda davr xarajatlari hisobini yuritishning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va amaliy muammolari tizimli ravishda tadqiq etilgan. Shuningdek, davr xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy hisob usullari hamda raqamli texnologiyalarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida davr xarajatlarini optimallashtirish korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshilashda muhim omil ekanligi ko'rsatilgan.

Eng. - This scientific article systematically studies the theoretical foundations, methodological approaches and practical problems of accounting for period costs at enterprises in the context of economic modernization. It also substantiates the importance of modern accounting methods and digital technologies aimed at increasing the efficiency of period cost management. The research results show that optimizing period costs is an important factor in improving the financial results of the enterprise.

Kalit so'zlar: Keywords:

- ❖ davr xarajatlari, modernizatsiya, boshqaruv hisobi, xarajatlar tahlili, moliyaviy natija, raqamli iqtisodiyot, optimallashtirish.
- ❖ period costs, modernization, management accounting, cost analysis, financial performance, digital economy, optimization.

Kirish.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, korxonalarda xarajatlarni oqilona boshqarish, ayniqsa davr xarajatlarini tahlil qilish va nazorat qilish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Davr xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog'liq bo'lmagan, ammo uning umumiy faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi xarajatlar yig'indisini ifodalaydi. Ular korxonaning sof moliyaviy natijasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularni samarali boshqarish va hisobini yuritish zamonaviy iqtisodiy sharoitda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-statistik usullar hamda mantiqiy

umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida davr xarajatlari hisobining nazariy asoslari va amaliy jihatlari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar faoliyatining tubdan yangilanishi, boshqaruv tizimlarining takomillashuvi va raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi moliyaviy hisob tizimiga, xususan davr xarajatlari hisobini yuritishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Davr xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish jarayonidan tashqarida yuzaga keladigan, biroq uning umumiy faoliyatini ta'minlash va bozor sharoitida raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan xarajatlar majmuasini ifodalaydi. Mazkur xarajatlar tarkibiga boshqaruv apparati xarajatlari, marketing va sotish faoliyati bilan bog'liq sarf-xarajatlar, ma'muriy va umumxo'jalik xarajatlari kiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida iqtisodiyotning barqaror o'sishi korxonalarda samaradorlikni oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bilan bevosita bog'liqligini bir necha bor ta'kidlagan. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy islohotlarda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Shuningdek, 2025-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o'sib, 147 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotga ilg'or, energiya tejamkor texnologiya olib kirilayotgani, yuqori qo'shilgan qiymat beradigan loyihalar ko'paytirilayotgani natijasida bir yil ichida bir dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga sarflangan energiya xarajatlari 15 foizga kamaydi, iqtisodiy o'sishning yarmidan ko'pi xizmatlar hisobidan ta'minlandi. "Bularning barchasi iqtisodiyotimiz yangi sifat bosqichiga o'tayotganidan dalolat. Biz 2026-yilda 6,6 foizli iqtisodiy o'sish qilib, yalpi ichki mahsulot hajmini 167 milliard dollarga yetkazishni

prognoz qilgan edik. Bu geosiyosiy vaziyat va iqtisodiy tebranishlar hisobga olib qilingan ehtiyotkor prognoz",- dedi Prezidentimiz [1]. Prezidentimiz yangi loyihalar, eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop mahsulot ishlab chiqarishga, xomashyo va energiya resurslaridan samarali foydalanishga, yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratib, mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi kerakligini yana bir bor qayd etdi. Prezident o'z nutqlarida "iqtisodiyotda yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, tannarxni pasaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish" ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda korxonalar faoliyatida davr xarajatlarini to'g'ri hisobga olish, ularning tarkibini tahlil qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi rolini aniqlash muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Korxonaning davr xarajatlari - bu mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog'liq bo'lmagan, biroq korxonaning umumiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqaruv, sotuv va boshqa operatsion xarajatlardan iboratdir. Ushbu xarajatlarning samarali boshqarilishi korxonaning moliyaviy natijalari, foydalilik darajasi hamda bozor sharoitidagi raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi korxonaning davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyatini yoritish, ularning tarkibi va hisobini o'rganish hamda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Korxonalar xarajatlarini boshqarish va ayniqsa davr xarajatlarini hisobga olish masalalari iqtisodiy nazariya hamda amaliy boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, davr xarajatlari korxonalar moliyaviy natijalari, boshqaruv qarorlari va raqobatbardoshlikka

bevosita ta'sir etuvchi iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Xorijiy iqtisodchi olimlar korxonalar xarajatlarini boshqarish masalasini strategik boshqaruv hisobi va samaradorlik konsepsiyalari bilan bog'liq holda tadqiq qilganlar. Jumladan, Robert S. Kaplan va Robin Cooper [2] faoliyatga asoslangan xarajatlar tizimi (Activity-Based Costing) orqali bilvosita xarajatlarni aniq taqsimlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish masalalarini o'rgangan. Ularning tadqiqotlari davr xarajatlarini tahlil qilish korxonalar resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Michael E. Porter [3] esa qiymat zanjiri konsepsiyasida korxonalar xarajatlari tarkibini strategik nuqtai nazardan tahlil qilib, ma'muriy va sotuv xarajatlarini nazorat qilish raqobat ustunligini shakllantirish omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomonidan xarajatlar hisobi va ularni boshqarish masalalari asosan buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil tizimi doirasida o'rganilgan. Xususan, V.V. Kovalev [4] korxonalar moliyaviy boshqaruvi bo'yicha tadqiqotlarida davr xarajatlarini korxonalar rentabelligini shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholaydi hamda ularni muntazam nazorat qilish zarurligini ko'rsatadi. V.F. Paliy va boshqalar [5] xarajatlar hisobining zamonaviy usullarini ishlab chiqishda davr xarajatlarini alohida hisob obyektlari sifatida ko'rib chiqib, boshqaruv hisobi tizimida ularning tahliliy imkoniyatlarini kengaytirgan. MDH ilmiy maktabida davr xarajatlarini kamaytirish emas, balki ularni iqtisodiy jihatdan asoslangan darajada optimallashtirish yondashuvi ustuvor hisoblanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan korxonalarda xarajatlar hisobi va moliyaviy natijalarni boshqarish masalalari milliy iqtisodiyot sharoitlariga mos ravishda tadqiq etilgan. B. Haydarov [6] hamda boshqa mahalliy tadqiqotchilar korxonalarda xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish usullarini takomillashtirish masalalarini

yoritgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, davr xarajatlarini samarali boshqarish korxonalar foydaliligini oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonda buxgalteriya hisobi standartlari va korxonalar xarajatlarini hisobga olish bo'yicha me'yoriy hujjatlarda davr xarajatlari ma'muriy xarajatlar, sotish xarajatlari hamda boshqa operatsion xarajatlar tarkibida aks ettirilishi belgilangan.

Fikrimizcha, xorijiy ilmiy maktablarda davr xarajatlari strategik boshqaruv vositasi sifatida, MDH olimlari tomonidan moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi omil sifatida, mahalliy tadqiqotlarda esa korxonalar samaradorligini oshirish instrumenti sifatida talqin etilgan. Shu sababli korxonalarda davr xarajatlarini hisobga olish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur ilmiy tadqiqotda korxonaning davr xarajatlarini iqtisodiy jihatdan o'rganish, ularning tarkibi, hisobini yuritish va korxonalar moliyaviy natijalariga ta'sirini baholashga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarining uyg'unligi asosida shakllantirildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida korxonalar xarajatlarini boshqarish, buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi va moliyaviy tahlil bo'yicha xorijiy, MDH hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan buxgalteriya hisobi standartlari va iqtisodiy islohotlar bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar xizmat qildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar samaradorligi nafaqat ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, balki davr xarajatlarini optimallashtirish orqali ham ta'minlanadi. Chunki davr xarajatlari to'g'ridan-to'g'ri mahsulot tannarxiga

kiritilmasdan, bevosita moliyaviy natijaga ta'sir qiladi. Shu bois ularni noto'g'ri boshqarish yoki yetarli darajada nazorat qilmaslik korxonaning foyda darajasini keskin pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida kuchayib borayotgan raqobat muhiti korxonalaridan xarajatlarni chuqur tahlil qilish, ularni samarali boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda aniq hisob ma'lumotlariga tayanishni talab etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni bilan bog'liq holda davr xarajatlari hisobini yuritish tizimida sifat jihatidan yangi bosqich kuzatilmoqda. An'anaviy buxgalteriya hisobidan farqli ravishda zamonaviy yondashuvlar xarajatlarni faqat qayd etish bilan cheklanib qolmay, balki ularni tahlil qilish, prognozlash va boshqarish imkonini ham yaratadi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va integratsiyalashgan axborot platformalari muhim rol o'ynaydi. Korxonalarda ERP tizimlarining joriy etilishi natijasida davr xarajatlari real vaqt rejimida kuzatilib, ularning dinamikasi bo'yicha tezkor tahlillar amalga oshirilmoqda. Bu esa rahbariyatga tezkor va asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Davr xarajatlari hisobini yuritish va boshqarish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, boshqaruv hisobi nazariyasida xarajatlarni tasniflash, ularni tahlil qilish va boshqarish usullari keng yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC), standart-kost tizimi va target costing kabi yondashuvlarning samaradorligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davr xarajatlari hisobini yuritish masalalari hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa raqamli texnologiyalar asosida xarajatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati mavjud. Davr xarajatlarini hisobga olish metodologiyasi ham modernizatsiya jarayonida

sezilarli darajada rivojlanmoqda. Xususan, faoliyatga asoslangan xarajatlar hisoblash usuli xarajatlarni aniq faoliyat turlari kesimida aniqlash imkonini berib, resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv an'anaviy usullarga nisbatan ancha aniq natijalar berib, xarajatlarning qaysi segmentlarda ortiqcha sarflanayotganini aniqlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, standart-kost tizimi yordamida rejalashtirilgan va amaldagi xarajatlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularning sabablari chuqur tahlil qilinadi. Bu esa korxonaga xarajatlarni nazorat qilish va ularni optimallashtirish bo'yicha samarali choralar ko'rishga yordam beradi.

Target costing konsepsiyasi esa bozordagi narxlar va iste'molchilar talabidan kelib chiqib xarajatlarni boshqarishga yo'naltirilgan bo'lib, u modernizatsiya sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv korxonaga mahsulot tannarxini bozor talablariga moslashtirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Natijada davr xarajatlari ham umumiy xarajatlar tizimining muhim elementi sifatida strategik boshqaruv obyektiga aylanadi. Biroq amaliyotda davr xarajatlari hisobini yuritishda bir qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, xarajatlarni to'g'ri tasniflash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ko'plab korxonalarda davr xarajatlari va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq yetarli darajada aniq belgilanmaganligi sababli hisob ma'lumotlarining aniqligi pasayadi. Bundan tashqari, ayrim korxonalarda hisob tizimining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi, zamonaviy dasturiy vositalarning yetishmasligi hamda malakali kadrlar tanqisligi davr xarajatlarini samarali boshqarishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa o'z navbatida noto'g'ri boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davr xarajatlari hisobini yuritish tizimi sezilarli darajada transformatsiyaga

uchramoqda. An'anaviy buxgalteriya yondashuvlari o'rnini zamonaviy boshqaruv hisobi tizimlari egallamoqda. Ushbu tizimlar xarajatlarni nafaqat qayd etish, balki ularni chuqur tahlil qilish, rejalashtirish va nazorat qilish imkonini yaratadi.

Davr xarajatlari tarkibi ham zamonaviy sharoitda kengayib bormoqda. Xususan, marketing, logistika, axborot texnologiyalari va innovatsion faoliyat bilan bog'liq xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bu esa ularni hisobga olish va tahlil qilish jarayonini murakkablashtiradi.

Zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lgan faoliyatga asoslangan xarajatlar hisobi (ABC) tizimi davr xarajatlarni aniq faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash imkonini beradi. Natijada xarajatlarning shakllanish manbalari aniqlanib, ularni optimallashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, standart-kost tizimi yordamida rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularning sabablarini tahlil qilish orqali boshqaruv samaradorligi oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davr xarajatlarni samarali boshqarish korxonaning foyda darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida xarajatlarni monitoring qilish tizimini joriy etish orqali ortiqcha xarajatlarni qisqartirish va resurslardan samarali foydalanish mumkin.

Davr xarajatlari hisobini yuritishda mavjud muammolar qatoriga ularni noto'g'ri tasniflash, hisob tizimining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi hamda tahlil jarayonining yuzaki olib borilishi kiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun korxonalarda zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, xalqaro standartlarga mos hisob siyosatini ishlab chiqish hamda kadrlar malakasini oshirish zarur. Shuningdek, davr xarajatlarni boshqarishda strategik yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Bu esa xarajatlarni faqat qisqartirish emas, balki ularni optimal darajada boshqarish orqali

korxonada qiymatini oshirishni nazarda tutadi. Davr xarajatlari tahlilining yuzaki olib borilishi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ko'pincha korxonalar faqat umumiy xarajatlar summasini hisoblash bilan cheklanib qoladi, biroq ularning tarkibi, dinamikasi va samaradorligi yetarli darajada o'rganilmaydi. Zamonaviy sharoitda esa xarajatlarni chuqur iqtisodiy tahlil qilish, ularning rentabellikka ta'sirini baholash va kelgusidagi rivojlanish strategiyasini shakllantirishda ulardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, korxonalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Bu nafaqat hisob jarayonlarini avtomatlashtirish, balki ma'lumotlarning aniqligi va tezkorligini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos hisob tizimini shakllantirish ham davr xarajatlari hisobini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish va ularni xalqaro bozorlarga chiqishiga xizmat qiladi. Kadrlar salohiyatini oshirish ham alohida e'tibor talab etadi. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar davr xarajatlarni samarali boshqarish, ularni tahlil qilish va optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ichki audit tizimini rivojlantirish orqali xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirish mumkin. Ichki audit davr xarajatlarning maqsadga muvofiqligini baholash, ortiqcha va samarasiz xarajatlarni aniqlash hamda ularni qisqartirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davr xarajatlari va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik yanada kuchayib bormoqda. Davr xarajatlarning ortib borishi sof foydaning kamayishiga olib keladi, bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois korxonalar xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan

samarali foydalanish va ortiqcha sarf-xarajatlarni qisqartirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Bunda zamonaviy boshqaruv vositalari va analitik tizimlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada davr xarajatlari hisobini yuritish tizimi strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimni takomillashtirish orqali korxonalar o’z faoliyatining samaradorligini oshirishi,

raqobatbardoshligini mustahkamlashi va barqaror rivojlanishni ta’minlashi mumkin. Davr xarajatlarini chuqur tahlil qilish, zamonaviy hisob usullarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish ushbu jarayonning asosiy yo’nalishlari sifatida namoyon bo’ladi. Natijada davr xarajatlari nafaqat hisob obyekt, balki korxonada boshqaruvida muhim strategik instrumentga aylanadi.

1-jadval

Korxonada davr xarajatlari tarkibi va dinamikasi

Ko’rsatkichlar	2022-yil (mln so’m)	2023-yil (mln so’m)	2024-yil (mln so’m)	O’zgarish sur’ati (%)
Boshqaruv xarajatlari	420	510	630	150
Sotish xarajatlari	360	445	590	163,8
Marketing xarajatlari	140	210	340	242,8
Axborot texnologiyalari xarajatlari	95	170	280	294,7
Umumxo’jalik xarajatlari	310	355	420	135,4
Xizmat safari xarajatlari	85	110	145	170,5
Reklama xarajatlari	120	180	260	216,6
Jami davr xarajatlari	1530	1980	2665	174,1

1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, korxonada davr xarajatlari hajmi yillar davomida izchil o’sib borgan. Ayniqsa, axborot texnologiyalari xarajatlari hamda marketing xarajatlarining yuqori sur’atlarda oshgani iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqamlashtirish jarayonlari bilan izohlanadi. 2022-2024-yillar davomida IT xarajatlari qariyb 3 barobarga oshgan bo’lib, bu korxonalarda zamonaviy boshqaruv va avtomatlashtirilgan hisob tizimlarining keng joriy etilayotganligini ko’rsatadi.

Shuningdek, reklama va sotish xarajatlarining sezilarli ortishi bozordagi raqobat muhiti kuchaygani bilan bog’liq. Korxonalar iste’molchilar talabini saqlab qolish va yangi bozorlarga chiqish maqsadida marketing strategiyalariga ko’proq mablag’ yo’naltirmoqda. Natijada jami davr xarajatlari 2022-yildagi 1530 mln. so’mdan 2024-yilda 2665 mln. so’mgacha yetgan.

Mazkur statistik ko’rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davr xarajatlari tarkibi murakkablashib, ularni samarali boshqarish korxonada moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini mustahkamlash va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda davr xarajatlarini oqilona boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, davr xarajatlari tarkibini chuqur tahlil qilish, ularni rejalashtirish va nazorat qilish korxonalarining rentabellik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, raqamli axborot tizimlari hamda boshqaruv hisobi usullarini joriy etish davr xarajatlarini optimallashtirish

imkoniyatlarini kengaytiradi. Korxonalarda ma'muriy, sotish va boshqa operatsion xarajatlarni samarali boshqarish ishlab chiqarish xarajatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan umumiy xarajatlar hajmini kamaytirishga yordam beradi. Tahlillar natijasida davr xarajatlarining iqtisodiy mazmunini yanada takomillashtirish, ularni hisobga olish va tahlil qilish metodologiyasini xalqaro standartlar talablari asosida rivojlantirish zarurligi aniqlandi. Bu esa

korxonalarining moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish hamda investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Demak, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar davr xarajatlarini samarali boshqarish tizimini shakllantirish korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi, moliyaviy barqarorligi va bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2026-yil 13 fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish ma'ruzasidan. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8942>

2. Kaplan R.S., Cooper R. *Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance*.

3. Porter M. E. *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. – simon and schuster, 2008.

4. Ковалев, Валерий Викторович. "Финансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности." (1996): 429-429.

5. Палий В.Ф. *Теория бухгалтерского учета: Современные проблемы. Управленческий учет: учебник*/Т.Ю. Серебрякова, О.А. Бирюкова, О.Г. Гордеева. Палий В.Ф. *Организация управленческого учета*. М.: Бератор-Пресс, 2003.

6. В.Найдаров - *Korxonalarda xarajatlar hisobi va tahlili*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 256 b.